

PRIMQUL QODIROVNING "MITTI" DURDONALARI [HIKOYALAR TAHLILI]

Urolova Lobar Shavkat qizi

Guliston Davlat Universiteti, filologiya fakulteti 3-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19875359>

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada taniqli adib Pirimqul Qodirovning "Ilinj" va "Olov" hikoyalari badiiy tahlil markaziga olingan. Muallif har ikki asarda urush fojiasi, uning inson taqdiridagi asoratlari hamda iroda matonati masalalarini qiyosiy o'rganadi. Maqolada Iqbol opaning sadoqati va Haydar otaning urush xotiralari orqali yozuvchining ramzlar bilan ishlash mahorati va xalqchil tili yoritib berilgan.

ABSTRACT: This article focuses on the literary analysis of the stories "Ilinj" and "Olov" by the famous writer Pirimqul Kadirov. In both works, the author comparatively studies the tragedy of war, its consequences for human destiny, and the issues of willpower. The article highlights the writer's skill in working with symbols and folk language through the loyalty of Iqbol sister and the war memories of Haydar father

KALIT SO'ZLAR: Pirimqul Qodirov, "Ilinj", "Olov", badiiy mahorat, urush fojiasi, sadoqat, Iqbol opa, Haydar ota, ramz, inson irodasi, psixologizm.

KEYWORDS: Pirimqul Kadirov, "Ilinj", "Olov", artistic skill, war tragedy, loyalty, Iqbol sister, Haydar father, symbol, human will, psychologism.

1928-yil 25-oktabr kuni Turkiston tog' tizmasi etagida Kengko'l qishlog'ida tug'ilgan Pirimqul Qodirov tarixshunos, yozuvchi, fan arbobi bo'lib, u O'zbekistonning badiiy tarixiy o'tmishining qayta yaratilishiga ko'p kuch va vaqt sarflagan ijodkordir.

Uning ijodi ham badiiy, ham tarixiy-ilmiy nuqtayi nazardan juda boy hisoblanadi.

Qirq yillik ijodiy faoliyati davomida kitobxonlarning yuqori talabini qondiruvchi kitoblar yozgan ijodkor. P. Qodirov tilga olinganda, ko'z oldimizda bepoyon tarixiy asarlar, Bobur Mirzoning iztirobli sog'inchi-yu, Akbarshohning ulkan saltanati gavdalanadi. Biz adibni monumental asarlar ustasi, tarixning murakkab chigalliklarini badiiy til bilan yechgan olim, yozuvchi sifatida taniymiz.

Biroq yozuvchi ijodining shunday bir qirradi borki, u ulkan tog'lar orasidagi mitti, ammo tiniq buloqlarni eslatadi. Bular adibning hikoyalaridir. Xususan, "Ilinj" va "Olov" hikoyalari muallifning inson ruhiyatini naqadar nozik his etishidan dalolat beradi. Bu asarlar hajman kichik bo'lsa-da, ko'targan dardi va falsafiy salmog'i bilan yirik romanlardan qolishmaydi. Agar romanlar tarixning keng sahifalarini ochsa, "Ilinj" va "Olov" hikoyalari inson qalbidagi eng chuqur qatlamlarini yoritadi.

Bu hikoyalarini birlashtirib turgan mushtarak jihat bor. Bu ham bo'lsa urush. Adib urushni shunchali tarixiy voqea emas, balki tirik odamlarning qonayotgan jarohati sifatida ko'rsatadi. Urush faqat jang maydonida odam o'ldirmaydi, u uzoq qishloqlardagi xonadonlarning chirog'ini o'chiradi, juvonlarni beva, go'daklarni yetim qiladi. Yosh avlod urushni ko'z oldida ko'rmagan bo'lsa-da, undan qolgan izlar, oqibatlari orqali qanday bo'lganini tasavvur eta oladi

"Ilinj" hikoyasining qahramoni Iqbol opa – mana shu urush kulfatining tirik timsoli. Hikoyada adib o'zbek ayolining sadoqatini garchand unsiz, ammo hayqiriqli bir tarzda tasvirlaydi. Qahramonning butun hayoti birgina ilinj ustiga qurilgan. Urushga ketib, bedarak ketgan turmush o'rtog'ini o'ttiz yildan ortiq vaqt davomida intizorlik bilan kutadi.

Yozuvchining mahorati shundaki, u Iqbol opaning dardini dabdabali so'zlar bilan emas, balki "ilinj" so'ziga yuklangan ulkan ma'naviy yuk orqali ochib beradi. Ayol har bir darvoza taqillashiga talpinadi. Har safar taqillaganda o'g'liga: "Tezroq qara-chi, dadang emasmikan?" deydi. Bu shunchaki kutish emas, bu sadoqatning eng yuksak cho'qqisidir. Hatto, daragini eshitib kelgan qizidan halok bo'lganini eshitsa ham ishongisi kelmaydi: "Dadangning surat-puratlari yo'q ekanmi? ... O'z qo'li bilan qabrga qo'ygan odam bor ekanmi?" deydi. Adib bu yerda "Insonni nima yashatadi?" degan savolga javob bergandek. Iqbol opani yillar qaritgan bo'lsa-da, uning ichidagi o'sha miltillab turgan ilinj – qalb chirog'i uni ruhan bukilishga qo'ymadi. Bu hikoyada qahramonning tili emas, uning mahzun va mag'rur sukunati gapiradi. Adib aytmoqchiki, urushning o'qi faqat dushman ko'kragiga emas, uyda qolgan mushtipar ayollarning bag'riga ham sanchilgan.

"Ilinj"da urushning asorati kutish va sukunat orqali berilgan bo'lsa, "Olov" hikoyasida uning dahshati qahramonning vujudidagi jismoniy og'riq orqali ochib beriladi. Hikoya markazidagi Haydar ota – urushning qonli nafasi tanasiga tegib o'tgan inson. Isboti sifatida hikoyadagi "...to'satdan o'ng ko'kragiga bir narsa shunday qattiq urildiki, ko'zlaridan "lop" etib olov chiqib ketganday bo'ldi. Dahshatli og'riq butun vujudiga tarqalib, yelkasi oralab ko'kragini go'yo yordirib yubordi. Gardiraklab yiqilayotganida yer-u osmon bir-biriga qo'shilib, gir-gir aylandi. Shu aylanishda tug'ilib o'sgan qishlog'i, ota-onasi, uyda qolgan yoshgina xotinini yashin tezligi bilan ko'z oldidan o'tdi" parchani keltirishimiz mumkin.

Adib Haydar otaning jarohatini tasvirlashda "olov"so'zini bejiz tanlamagan. Bu olov qahramonning vujudini yarador qilgan urushning mudhish ramzidir. Haydar ota o'sha lahzada o'limning issiq taftini his qiladi. P. Qodirov bu orqali urush shunchaki tarixiy raqamlar emas, balki tirik inson ta'nasini kuydirib o'tgan jismoniy og'riq ekanini butun bo'yi bilan ko'rsatib beradi.

Hikoyaning eng hayajonli nuqtasi bobo va nevaraning muloqotida ko'rinadi. Adibning mahorati shundaki, u salyutlardan zavqlanayotgan nevara va o'sha salyutlarda "urush xudosi"ning dahshatli asoratini ko'rayotgan bobo o'rtasidagi ruhiy masofani mahorat bilan chizadi. Bayram salyutlaridan zavqlanayotgan nevarasiga qarab: "Ishqilib "urush xudosi"ning mana shunaqa olovli guldastalaridan zavqlanib yurgin-u, lekin uning biz ko'rgan boshqa olovlarini sen ko'rmagin, bolam", degan duosi adibning insoniyatga yo'llagan tinchlik chorlovidir. Adib olov ramzi orqali ham vayronkorlikni, ham hayotbaxsh shukronalikni mahorat bilan qiyoslaydi.

Osmondagi bayram salyutlari (rang-barang olovlar) - tinchlikning shukronasi bo'lsa, boboning xotirasidagi olov - urushdan qolgan izlardir. Urushning eng katta oqibati shuki, uni ko'rgan odam hatto bayram olovlarida ham osha qonli kunlarni eslaydi.

Bu ikki hikoya birbirini mantiqan to'ldiradi. Iqbol opa urush o'g'irlagan baxtni sadoqat nuri bilan asrab yashasa, Haydar ota urushning olovini shukronalik va duolar bilan sovitadi. P. Qodirov bu asarlarida urushning oqibatlarini shunchaki qog'ozga tushirmaydi, u o'quvchining yuragiga olovli tamg'a bosadi. Urush tugaganiga ko'p yillar bo'lgan bo'lsa-da, Iqbol opaning hovlisidagi sukunatda va Haydor otaning tanasidagi chandiqa uning nafasi sezilib turadi. Adibning xalqchil tili bizni hushyor torttiradi. Tinchlik - bu shunchaki urushning yo'qligi emas, balki Iqbol opaning sadoqati va Haydar otaning duosi kabi muqaddas tuyg'ularning asralishidir. Zero, qalbida sadoqat olovi bor millat hech qachon zavol topmaydi. P. Qodirovning bu "mitti" durdonalari bugungi insonlar uchun ma'naviy darslikdir.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Primqul Qodirov “ Qadrim ” [qissa, hikoya va esdaliklar] “ Turon zamin ” nashiryoti.
Toshkent 2024-yil
2. <https://arboblar.uz>
3. <https://staff.tiame.uz>